



MAHALLIY SHEVAGA MOSLASHIB KETAYOTGAN INGLIZ TILIDAGI SO'ZLARNI TADQIQ ETISH

Sadriddinova Zaxroxon Azizjon qizi
Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tili ona tilisi hisoblangan mahalliy aholi yani, Buyuk Britaniya, Qo'shma Shtatlar, Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandiya aholisi tomonidan tez gapirish maqsadida ba'zi so'zlarni qisqartirib yoki buzib talaffuz qilinishi oqibatida asl ko'rinishini yo'qotayotgan so'zlar tadqiq qilinadi va ushbu so'zlardan foydalanilganda qanday salbiy jihatlarni keltirib chiqarishi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *Gonna, To be going to, Gotta, Got to, Wanna, Want to, Hafta, Have to, Dunno, Don't know, Whatcha.*

KIRISH

Hozirgi davrda ingliz tilida ravon gapirish dunyo mamlakatlari bo'ylab jadal rivojlanib bormoqda va turli xil kasb doirasida hattoki kunlik ishlatiladigan mahsulotlar va texnologiya qo'llanmalarida ham ko'p holatlarda ingliz tilidan foydalanilyotganini kuzatishimiz mumkin. Biroq, bugungi kunda ingliz tili ona tilisi hisoblangan mahalliy aholi yani, Buyuk Britaniya, Qo'shma Shtatlar, Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandiya kabi mamlakatlarda yashovchi aholi tez gapirish va tez tushunish maqsadida ko'plab so'zlarni buzib ham qisqartirib muloqat qilish oqibatida ba'zi so'zlarning qolipi buzilishiga undan tashqari omma o'rtasida ushbu so'zlarning asl holati yo'qolib ketishiga sabab bolmoqda.

Jumladan, "Gonna", "Wanna", "Gotta", "Hafta", "Dunno", "Whatcha" kabi so'zlarni ko'rib chiqamiz.

"Gonna"- fe'li aslida "To be going to" ko'rinishida bo'lib, gapda mana bu holatda qo'laniladi

-I am going to study English.

-I am gonna study English.

Bu yerda "to" peredlogi tushib qolgan va so'zni qisqarib ketishi orqali bir butun so'z sifatida qotib qolgan birikmaga aylangan.

Keyingi so'zimiz "Wanna" asl ko'rinishi "Want to" bo'lib gapda qo'llaymiz.

-I want to study English.

-I wanna study English .

Bu gapda ham "to" peredlogi va "T" harfi tushushi oqibatida "N" va "A" harflari ortirilib "Wanna" ko'rinishida qotib qolgan.

Keyingisi "Gotta" "Have got to" felidan kelib chiqqan.



I gotta study English

I have got to study English

To'rtinchi fe'limiz "Hafta" fe'li asl ko'rinishi "Have to" bo'lib gapda mana bu

ko'rinishida qo'laniladi

I hafta study English.

I have to study English.

Oxirgi fe'l esa "Dunno" feli asl ko'rinishi "Don't know" gapda mana bu ko'rinishda keladi.

I don't know English language

Bu so'zlarni ikki ko'rinishda ham foydalansa o'z ma'nosini saqlab qoladi ammo, asl ko'rinishi yuqolib bormoqda.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bu fe'llarni yoki shu kabi so'zlardan kun davomida foydalanish so'zlashuvni osonlashtirishi yoki nechadir millidaqiqa vaqtga ham yutishi mumkin. Biroq bu so'zlarni ushbu holatda qo'llanilishi asl ko'rinishini yo'qolib ketishiga va ko'plab ingliz tilini o'rganib kelayotganlar uchun tushunish darajasini bir necha martaga qiyinlashtirishi ham mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sebastian Archer. Learn English 300% Faster 69 Tips to Speak English Like a Native English Speaker! - T. : (4)21-23 b.
2. https://youtu.be/PE97Fm4d_FQ?si=WAKb413_vhJuTQOn
3. How to Speak English Fast & Understand Natives
4. <https://oxfordlanguageclub.com/page/blog/how-to-speak-english-fast-understand-natives>
5. <https://youtu.be/MiebCHmiszs?si=mt3K8FHohTNo1MKO>
6. Zubaydova N.N. (2019) Learning English with Phrases - T. : Scope Academic house 9th international conference " Science and practice : a new level of integration in the modern world